Kamronbek ABDULAZIMOV,
International Islamic academy of Uzbekistan, researcher, e-mail:kemranbey@bk.ru 22, Zarbdor-5 str., Tashkent, Uzbekistan, Post Code: 100174. Tel: +998 93 545 84 44

XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA ISLOM OMILI VA YAQIN SHARQ MINTAQASIDAGI GEOSIYOSIY JARAYONLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ИСЛАМСКИЙ ФАКТОР В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ОСОБЕННОСТИ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА БЛИЖНЕМ ВОСТОКЕ

THE PECULIARITIES OF GEOPOLITICAL PROCESSES IN THE MIDDLE EAST

Kalit so‘zlar: *xalqaro munosabatlar, islom dini, islom omili, demografik o‘sish, tabiiy resurslar eksporti, terrorizm, Yaqin Sharq, geosiyosat, OPEC, Balfur deklaratsiyasi, Sayks-Pikot kelishuvi, Sovuq urush, AQSH, Karter doktrinasi, “Arab bahori”, Xitoy, Rossiya, fuqarolar urushi.*

Ключевые слова: *международные отношения, религия ислам, исламский фактор, демографический рост, экспорт природных ресурсов, терроризм, Ближний Восток, геополитика, ОПЕК, декларация Бальфура, соглашение Сайкса-Пико, холодная война, США, доктрина Картера, “Арабская весна”, Китай, Россия, гражданская война.*

Key words: *international relations, the religion of Islam, Islamic factor, demographic growth, exports of natural resources, terrorism, Middle East, geopolitics, OPEC, Balfour Declaration, Sykes-Picot Agreement, Cold War, the USA, Carter Doctrine, “Arab Spring”, China, Russia, civil war.*

Zamonaviy dunyoda islom omili xalqaro munosabatlar tizimida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu dunyoning yirik hukmron davlatlari geosiyosiy manfaatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ko‘pchilik G‘arb siyosatchilari islomni musulmon olamiga, zamonaviy xalqaro hayot va kelajak dunyo boshqaruviga juda ham ta’sirli kuch sifatida qarashmoqda.

Islom omilining bu kabi ahamiyati ortishi bir necha sabablar bilan izohlanadi. Ulardan birinchisi, islom olamining strategik ahamiyati va uning ko‘lami hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, Osiyo va Afrika davlatlarida islom diniga e’tiqod qiluvchi aholi yuqori ijtimoiy-siyosiy faollikni namoyon qiladilar. Shuningdek, Yevropa va Shimoliy Amerikada musulmon migratsiyasining ortishi kuzatilmoqda.

2019-yil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisi 7 mlrd 700 mln kishiga yaqinlashdi[1]. Ulardan 1 mlrd 800 mln ga yaqin kishi islom diniga e’tiqod qiladi. Har yili bu davlatlar aholisi 2,6 % ga ko‘paymoqda. Ammo sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 0,9 % ni tashkil etib, uning kamayayotganligini ko‘rsatadi[2].

Musulmon davlatlarida g‘arb iqtisodiyoti va harbiy sohalar uchun zarur bo‘lgan mineral xomashyo zaxiralarining katta qismi joylashganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Neft xomashyolarini Yaqin Sharq va O‘rta Sharqdan yetkazib berishga talab yana uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Bugungi kunda ko‘plab musulmon mamlakatlari o‘ziga ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish va amalda tatbiq qilishga urunmoqdalar. Ayniqsa, bu harbiy sohalarga tegishli. Jadal suratlarda o‘zining mustaqil texnik kadrlarini shakllantirish eng asosiy masalaga aylangan.

Musulmon mamlakatlarida harbiy sohaning o‘sishi g‘arb davlatlaridan zamonaviy qurol-yaroqlarni sotib olish, o‘z harbiy strukturasini xorijiy mutaxassislar yordamida takomillashtirish kabi omillar bilan izohlanadi. Milliy harbiy sanoatni rivojlantirish, turli taktik va strategik qurollarga ega bo‘lish ko‘pgina musulmon davlatlarining bugungi kundagi asosiy maqsadiga aylandi.

Oxirgi yillarda musulmon davlatlarining xalqaro siyosatga ta’siri kuchaydi. Bu bir qancha davlatlar rahbarlarining (Eron, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Misr, Indoneziya va boshqalar) tashqi siyosat bo‘yicha bayonotlarida alohida ko‘rinadi. Musulmon davlatlari xalqaro doirada birgalikda harakat qilish maqsadida 1969-yil “Islom Konferensiyasi Tashkiloti”[3]ni tashkil etishdi.

Neftga boy ba’zi musulmon davlatlari nafaqat o‘z davlatining iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy sohalarini rivojlantirishga, balki o‘z hududidan tashqaridagi radikal g‘oyalarni tarqatuvchi har xil ko‘rinishdagi harakatlarga moliyaviy, vositaviy ko‘mak bermoqda.

Ammo musulmon dunyosining iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘sishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan umumiy rivojlanganlik darajasi hamon pastligicha qolmoqda. Aksariyat islom mamlakatlarining

Bugungi kunga kelib xalqaro munosabatlar tizimida islom omili va uning ta'siri ortib bormoqda. Jahon siyosatida yuz berayotgan o'zgarishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'p murojaat etilayotgan mavzulardan biri bu islom omili va xususan Yaqin Sharq mintaqasi hisoblanadi.

Maqola mazmun jihatidan asosan ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismida islom omili ahamiyatining ortishi; e'tiqod qiluvchilarining demografik o'sishi, musulmon davlatlarining iqtisodiy, ilmiy, siyosiy jihatdan rivojlanayotganligi; bu davlatlarda islomning siyosiylashuvi, so'nggi yillarda arab davlatlari orasida bo'lib o'tayotgan voqealar izohlanadi.

Ikkinchi qismda geosiyosat tushunchasiga ta'rif berish, Yaqin Sharq mintaqasiga kiruvchi davlatlarning turli siyosiy maktablar tomonidan turlicha belgilanishiga urg'u berilgan bo'lsa, undan keyin mintaqaning geosiyosiy jihatdan shakllanishida muhim o'ringa ega bo'lgan AQSH, Xitoy, Rossiya kabi davlatlarning pozitsiyalarini aniq asoslarga ko'ra yoritishga harakat qilingan. Yaqin Sharq mintaqasi oxirgi ikki asr davomida turli tashqi kuchlar ta'sir doirasining muhim obyektiga aylandi. Mintaqadagi geosiyosiy vaziyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyati shundaki, tashqi kuchlar mintaqadagi diniy konfessiya va millatlararo ziddiyat, qarama-qarshiliklardan mohirona foydalanganlar.

So'nggi paytlarda ushbu tashqi kuchlarning o'z manfaatlari yo'lida olib borayotgan geosiyosiy va geoiqtisodiy raqobati mintaqadagi vaziyatning yanada keskinlashuviga olib keldi. Bularga misol sifatida "Arab bahori", Suriya va Yamandagi qurolli mojarolar, Isroil va Falastin o'rtasidagi to'qnashuvlar, AQSHning Eronga nisbatan hozirgi munosabatlarini ko'rsatish mumkin.

На сегодняшний день наблюдается рост влияния исламского фактора на международные отношения. Анализируя изменения, происходящие в мировой политике, одной из наиболее часто обсуждаемых тем является исламский фактор и в частности, Ближний Восток.

Статья разделена на две части. Первая часть связана с растущим значением исламского фактора, демографическим ростом верующих, экономическим, научным и политическим развитием мусульманских стран, политизацией ислама и недавними событиями в арабских странах.

Вторая часть описывает понятие геополитики, определение Ближнего Востока политическими школами и предпринимается попытка показать позиции таких стран, как США, Китай и Россия, играющих важную роль в геополитическом формировании региона. За последние два столетия Ближний Восток был важной целью для различных внешних сил. Особенность геополитической ситуации в регионе заключается в том, что внешние силы умело использовали религиозные конфессии и межэтнические противоречия в регионе.

В последнее время геополитическое и геоэкономическое соперничество этих внешних сил усугубило ситуацию в регионе. Примерами могут служить «Арабская весна», вооруженный конфликт в Сирии и Йемене, израильско-палестинский конфликт и нынешние отношения между Соединенными Штатами и Ираном.

Today, the Islamic factor and its influence in the system international relations are growing. Analyses of the changes taking place in world politics show that one of the most

The article is divided into two parts. The first part is related to the growing importance of the Islamic factor; the demographic growth of believers, the economic, scientific and political development of Muslim countries; the politicization of Islam and the recent events in the Arab countries.

The second part describes the concept of geopolitics, various definitions of the Middle East countries by different political schools, and shows the position of the countries such as the United States, China and Russia, which play an important role in the geopolitical formation of the region. Over the past two centuries, the Middle East has been an important target of various external forces. The peculiarity of the geopolitical situation in the region is that external forces skillfully used religious denominations and interethnic contradictions in the region.

Recently, the geopolitical and geoeconomic rivalry of these external forces in their own interests has aggravated the situation in the region. For examples, the Arab Spring, the armed conflict in Syria and Yemen, the Israeli-Palestinian conflict and current relations between the United States and Iran.

yalpi ichki mahsuloti (YIM) aholi sonining o'sishiga nisbatan ancha past. 1990-yillarda mazkur mamlakatlarning aholi soni dunyoning 18.5% bo'lib, YIMi esa atigi 4.4% ni tashkil etgan. Ilmiy-texnik rivojlanish darajasi bo'yicha hamon G'arb davlatlari ilmiy yutuqlarini o'zlashtirib kelmoqda. Bunga aholi orasidagi savodxonlikning pastligi o'z ta'sirini ko'rsatadi[4; 101 b.].

Musulmon davlatlari orasida yakdillikning yetishmasligi yana bir asosiy xususiyatlardan biridir. Hozirda musulmon dunyosi "badavlat" ozchilikka, ya'ni neft eksport qiluvchi davlatlar va "kambag'al" ko'pchilikka bo'lingan. Dunyo bo'ylab targ'ibot qilinayotgan "islom hamkorligi" tushunchasi ham alohida davlatlarga nisbatan amalga oshiriladi va aksariyat hollarda quruq gaplardan nariga o'tilmaydi[5; 64 b.].

Musulmon davlatlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy jihatdan qoloqligining asosiy sababi – ularning chet davlatlar tomonidan ko'rsatiladigan harbiy va ilmiy sohalardagi yordamiga qaramligidadir.

Islom omili dunyoning barcha musulmonlarini birlashtiruvchi umumiy kuchga ega. Ammo, unga rioya etish esa bir xil emas, ya'ni unda turli xil ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari o'z aksini topgan. Bugungi kunda musulmon dunyosi nihoyatda murakkab bo'lgan qutblanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Mazkur holatda turli xil radikal oqimlar, harakatlar, terroristik tashkilotlar yuzaga kelmoqda.

So'nggi yillarda radikal g'oyalar ta'sir doirasi kengayishining asosiy sabablari sifatida:

– iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyatsizligi natijasida tabaqalanishning kuchayib ketganligi;

– davlatlarda demokratik tamoyillarga asoslangan boshqa kuchli mafkuralarning yo'qligi;

– G'arb mamlakatlarining o'z iqtisodiy va madaniy modellari bilan musulmon mamlakatlari hayotiga kirib kelishining aholi orasida g'azab uyg'otganligidir.

Radikal g'oyalarning kuchayishiga olib kelgan sabablardan yana biri – bu Arab-Isroil munosabatlarida mavjud bo'lgan ziddiyatning ortib borishi, Iroq va Liviyada doimiy ravishda turli xil to'qnashuvlarning (chegaraviy, hududiy, millatlararo, konfessiyalararo va b.q.) mavjudligi va ularda arab davlatlarining ishtirok etishidir [6; 23 b.].

Bunday tendensiyalar tobora ajv olmoqda. Jahon siyosatida islom omili katta ahamiyatga ega ekanligini birgina Yaqin Sharq mintaqasidagi jarayonlarning shakllanish dinamikasini tahlil qilish orqali anglash mumkin.

Yaqin Sharq mintaqasi. Ma'lumki, geosiyosat – geo (yer), siyosat (boshqarish, tartibga solish) ma'nolarini anglatadi. Bu zamonaviy davrda ham davlatlar, ayniqsa yetakchi davlatlarning o'z chegaralaridan narida bo'lgan yerlarga, mintaqalarga qiziqishi va u yerlarda manfaat topishga intilishi davom etmoqda.

G'arb olimi J.Agnyuv "geosiyosat – bu qanday tarzda dunyoni hududlash, bo'lingan, belgilab qo'yilgan hamda siyosiy rahbarlar tomonidan ko'proq yoki kamroq ahamiyatga ega joylar iyerarxiyasidagi joylashuvini tadqiq etuvchi fan" [7; P.3.], deb ta'riflaydi. Klassik geosiyosiy yondashuvga ko'ra dunyoning fizik geografiyasi ko'p jihatdan insoniyat tarixiy yo'nalishini belgilashini ilgari sursa, tanqidiy geosiyosat global tartibni tabiiy o'lchamlarga bog'lamagan holda, uning ijtimoiy hamda tarixiy qurilmalariga ahamiyat beradi. Unga ko'ra "dunyo siyosatini anglab yetishda geografik o'lchamlar emas, balki joy va xalqlarning tasnifi voqea va hodisalar bilan bog'liqlik" [8; P.276.], deb baho berishadi.

Yaqin Sharq mintaqasi o'zining geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyatiga ko'ra dunyoning muhim strategik hududlaridan biri hisoblanib, dengiz kommunikatsiyalarining muhim markazi, dunyo madaniyati o'choqlaridan biri, ulkan tabiiy zaxiralariga ega hudud sifatida uzoq davrlar mobaynida dunyoning yetakchi davlatlari diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Yaqin Sharq mintaqasi Osiyoning g'arbi va Afrikaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, unga Misr, Sudan, Isroil, Iordaniya, Suriya, Livan, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon, Falastin yerlari, Saudiya Arabistoni, Yaman, Quvayt, Qatar, Bahrain, Kipr, Turkiya davlatlari kiradi.

Yaqin Sharqni G'arb tadqiqotchilari "Middle East" deb nomlab, uning tarkibiga Falastin, Suriya, Livan, Iordaniya, Misr va Fors ko'rfazi davlatlarini kiritgan. Bu hududlar sobiq Sovet Ittifoqi davrida Yaqin Sharq (Falastin, Suriya, Livan, Iordaniya va Fors ko'rfazidagi 6 ta davlat) va O'rta Sharq (Iroq, Eron va qisman Afg'oniston) deb yuritilgan. AQSHda katta Jorj Bush davridagi "yovuzlik markazlari" operatsiyasi doirasida Iroq va Eron ham bu hududga kiritilgan bo'lsa, mintaqa davlatlarini "demokratlashtirish"ga qaratilgan "Katta Yaqin Sharq" strategiyasi ishlab chiqilganidan so'ng, "Middle East" tarkibiga Afg'oniston va Pokiston ham kiritildi.

Mintaqa uch qit'a – Yevropa, Osiyo va Afrika kesishgan nuqtada joylashgan bo'lib, Osiyoning janubi-g'arbiy, Afrikaning esa shimoli-sharqiy qismlarini qamrab oladi. Bu yerdan, Fors qo'ltig'i hududidan Ormuz bog'ozi orqali Qizil va O'rta yer dengiziga Suvaysh kanali orqali muhim aloqa va asosiy neft tashish yo'llari o'tadi [9; 110 b.]. Agar mintaqaning 15 ta davlati hududini taxminan hisoblasak, deyarli 9 mln. kv.km.ni tashkil etib, mintaqa aholisi dunyo aholisining 9-10 %ga to'g'ri keladi.

Dunyoning geosiyosiy bo'linishida so'nggi paytlarda neftni eksport qiluvchi Eron, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Pokiston kabi davlatlarning o'rni va ta'siri o'sib bormoqda. Ikki qutbli dunyo tartiboti tugashi bilan G'arb davlatlari bilan bir qatorda yangi kuch

markazlari paydo bo‘la boshladi va ular bilan endi dunyoning yetakchi davlatlari hokimiyati va ta’sir kuchlarini bo‘lishishlariga to‘g‘ri kelmoqda. Yaqin Sharq va Janubiy Afrika mintaqalarini ana shunday yangi kuch markazlari sirasiga kiritsak bo‘ladi.

Bugungi kunda mintaqa davlatlari 1960-yillarda ko‘plab neft eksport qiluvchi davlatlar ishtirokida tashkil etilgan Neft eksporti qiluvchi davlatlari tashkiloti (OPEC – Organization of Petroleum Exsporting Countries) a’zosi sifatida umumjahon neft zaxiralarining 60%idan ortig‘iga egalik qilib, uning sotuv narxini shakllanishida sezilarli ta’sir ko‘rsatib kelishmoqda. Birgina neft eksportidan tushadigan bir kunlik foyda 600-700 mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

Mintaqaga hukmronlik qilishga intilishlar ancha yillar oldin boshlangan. Birgina birinchi jahon urushi davrida mintaqaga hukmronlik qilish uchun Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya va AQSH davlatlari faol kurash olib borgan. Buyuk Britaniya mazkur mintaqani Usmonli turklar imperiyasidan tortib olish va to‘la hukmronlik o‘rnatish maqsadida turklarga qarshi bo‘lgan radikal millatchilarini qo‘llab-quvvatladi. Turk hokimiyatiga muxolifatda bo‘lgan mahalliy arab shayxlarining milliy mustaqillikni qo‘lga kiritishdagi sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash aslida Turkiya o‘rnini to‘liq egallashga qaratilgan.

Shuningdek, Buyuk Britaniya Yaqin Sharq mintaqasiga nisbatan o‘zining mustamlaka siyosatini yuritish uchun turli strategiya va yondashuvlarni ishlab chiqqan. 1907-yildagi Britaniya bosh vaziri Genri Kembell-Bennermanning Usmonli turklar imperiyasiga qarshi qaratilgan maxfiy rejasi[11], 1917-yilgi Yaqin Sharqning eng muammoli nuqtasida yahudiylar manfaatlarini himoya qiluvchi davlat g‘oyasini o‘zida ifodalagan “Balfur deklaratsiyasi” [12], keyinchalik Usmonli turklar imperiyasi parchalanishiga olib kelgan va hozirgi xaritaga asos bo‘lgan 1916-yilda imzolangan Buyuk Britaniya va Fransiya o‘rtasidagi mandatlar haqidagi mashhur kelishuv – “Sayks-Pikot kelishuvi” [13] larni misol qilib keltirish mumkin.

XX asr boshlarida Yaqin Sharqni bo‘lib olish siyosatida inglizlarga qarshi Rossiya-Fransiya yaqinlashuvi kuzatilgan bo‘lsa, Germaniya Yaqin Sharqda inglizlar kabi yagona hukmronlikni qo‘lga kiritishga intildi. Bu maqsadda nemis diplomatiyasi Yaqin Sharqdagi temir yo‘llarni qurish va ularni boshqarish uchun konsepsiya olishga kirishdi.

AQSHning dunyo neft zaxiralarini qo‘lga kiritish va jahon energetika siyosatini boshqarish kabi oliy strategik rejasini amalga oshirishda Yaqin Sharq mintaqasi o‘ta muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shundan so‘ng, Yaqin Sharq AQSHning hayotiy muhim manfaatlari mavjud hudud sifatida qaralib, mintaqada yangi neft zaxiralarini qidirish ishlariga faol kirishildi. Uning bu borada olib borgan sa’y-harakatlari natijasida 1946-yilga kelib, Yaqin Sharq mintaqasida aniqlangan neft zaxiralarining 44 foizi AQSHning neft kompaniyalariga tegishli bo‘ldi [14; 142 b.].

“Sovuq urush” davrida Yaqin Sharqda tashqi kuchlar asosiy rolni o‘ynagan holda, mintaqa asosan ikki mafkura – kapitalizm va sotsializmning kurash maydonlaridan biriga aylandi. Bunday mafkuraviy kurashlar natijasida mintaqa davlatlarida ichki bo‘linish yoki qarama-qarshi kuchlar yuzaga kela boshladi. Mintaqadagi etnik guruhlar va diniy konfessiyalar orasida ham bu ikki tuzumni qo‘llab-quvvatlovchilar soni ortib borib, ichki mafkuraviy bo‘linishlar yuzaga keldi.

Bu davrda G‘arb va Sobiq Ittifoq tomonidan mintaqada ikki qarama-qarshi mafkurani qo‘llab-quvvatlovchi davlatlar shakllantirila boshlandi. Mintaqadagi davlatlar ham ikki blokka ajratildi. Xususan, Isroil, Turkiya va Fors ko‘rfazi arab davlatlari kapitalizmni, ya’ni G‘arbni qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, Suriya, Misr, Eron va keyinchalik Iroq davlatlari sobiq Sovet Ittifoqi bilan yaqinlashishga harakat qildi. Natijada mintaqa davlatlari o‘rtasida turli ziddiyat va nizolar yuzaga kelib, mintaqa yetakchiligiga da’vo qiluvchi davlatlar paydo bo‘la boshladi. Bu bevosita mintaqada gegemonlikka da’vogar bo‘lgan Iroq, Eron, Turkiya, Isroil va Saudiya Arabistoni kabi davlatlar o‘rtasidagi keskin raqobatda namoyon bo‘ldi. Natijada Isroil-Misr, Isroil-Suriya, Isroil-Livan o‘rtasida hududlar uchun, Eron-Iroq, Iroq-Quvayt davlatlarida neft konlari uchun urushlar hamda Saudiya Arabistoni bilan Yaman o‘rtasida mojarolarni keltirib chiqardi.

1956-yilgi Suvaysh inqirozigacha bo‘lgan davrda mintaqada Fransiya va Buyuk Britaniyaning ta’siri kuchli bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik Isroilning Yevropa davlatlari boshchiligida Misrga qarshi “uch tomonlama agressiyasi” [15]dagi mag‘lubiyatidan so‘ng, AQSH hukumati mintaqada o‘zining maxsus doktrinasini ishlab chiqish va harbiy-siyosiy vaziyatni qo‘lga olishga kirishadi. Bunga 1957-yilda har qanday davlatga moliyaviy “ko’mak” beruvchi “Eyzenxauer doktri-

nasi" [16]ni misol qilish mumkin. Mazkur doktrinaga muvofiq, AQSHning asosiy strategiyasi bu mintaqa davlatlarini "kommunizm" g'oyasidan himoya qilishga qaratilgan. Bunda AQSH tomonidan o'z manfaatlari yo'lida mintaqada Fransiya va Buyuk Britaniyaning rolini susaytirishga; arab davlatlari va Eronning siyosiy va iqtisodiy hayotida o'z monopoliyasini o'rnatishga; qo'shimcha neft resurslariga ega bo'lishga; Isroilga yaqinlashish va uni mintaqadagi bosh ittifoqchi davlatga aylantirishga qaratilgan harakatlarni olib borishi ko'zda tutildi.

1967-yilgi Arab-Isroil urushi "Eyzenxauer doktrinasi"ni tubdan o'zgartirishga majbur etdi. Natijada uning o'rniga "yumshoq" xarakterga ega bo'lgan "Nikson doktrinasi" ishlab chiqildi. Unga ko'ra, arab davlatlari orasida eng birinchi Saudiya Arabistoni va Erondagi monarxiya rejimini mustahkamlash orqali sobiq Ittifoq ta'sirini kamaytirish, AQSH neft kompaniyalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan. Bunda Isroil AQSHning mintaqadagi asosiy ittifoqchisi sifatida belgilandi [17].

1970-yillarga kelib "Sovuq urush" ning jiddiy tus olishi oqibatida mintaqada kuch omili kuchayib bordi. Bu borada 1977-yilda AQSH prezidenti Jimmi Karter tomonidan imzolangan "AQSH milliy strategiyasi" asosida "Karter doktirinasi" [18] ishlab chiqildi. Unga ko'ra Yaqin Sharqqa mustahkam joylashish uchun AQSH harbiy bazalarini joylashtirishga katta e'tibor qaratildi. 1980-yildan boshlab prezident J. Karter tomonidan Fors ko'rfazi "AQSHning hayotiy muhim manfaatlari mavjud mintaqa" deb rasmiy e'lon qilindi va mintaqa davlatlariga nisbatan Amerika qurolli kuchlaridan bosim vositasi sifatida foydalanila boshlandi [19].

Umuman olganda, Yaqin Sharqda 1947, 1956, 1967, 1973, 1980 va 1990-yillarda yuz bergan harbiy to'qnashuv va ziddiyatlar jarayonida AQSH ma'muriyati o'zini mintaqada siyosiy hukmron kuch sifatida namoyon etishga hamda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga erishdi. 1980-yilda AQSHning Erondagi siyosiy mahbuslarni qutqarish operatsiyasi, Afg'onistonda sovet harbiylariga qarshi kurashda mujohidlarga ko'magi, 1982-yilda Isroilning Livanga bostirib kirishiga imkoniyat yaratishi, 1983-yilda AQSH havo kuchlari tomonidan Suriyaning Livandagi harbiy bazalarga hujum uyushtirilishi, 1986-yilning aprelida Liviyaga nisbatan amalga oshirilgan havo hujumlari, 1988-yilda Eronning Fors ko'rfazidagi harbiy floti bazalariga havo hujumi, 1990–1991-yillarda Iroqning Quvaytga nisbatan agressiyasiga qarshi kurashi, 1992-yilda Somaliga AQSHning 21 ming kishilik harbiy qo'shinining kiritilishi, 1998–1999-yillardagi Iroq hududidagi harbiy inshootlarga havodan zarar berish va harbiy harakatlar yordamida Saddam Husayn hokimiyatini ag'darish AQSHning jahon siyosatida muhim o'rin tutuvchi Yaqin Sharq masalalarida ma'lum darajada yetakchilik qilayotganidan dalolat beradi [20; 144 b.].

AQSH hukumatiga Bill Klintonning kelishi "Sovuq urush" ning tugashi va globallashuv jarayonining rivojlanish davriga to'g'ri keldi. AQSHning asosiy raqibi bo'lgan sobiq Ittifoqning parchalanishi oqibatida AQSH jahon siyosatida, shuningdek, Yaqin Sharq mintaqasida yagona kuchga aylandi. Bu davrda AQSHning "yangi demokratiyani kengaytirish va xalqaro ishlarga jalb qilish" strategiyasi ilgari surildi [21; C.66.].

2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng AQSHning Yaqin Sharqqa nisbatan siyosati keskin o'zgardi. 2002-yili prezident kichik Jorj Bush boshchiligida ishlab chiqilgan "AQSHning milliy xavfsizlik strategiyasi" nomli rasmiy hujjat asosida AQSHning bu mintaqaga nisbatan yangi "Katta Yaqin Sharq" strategiyasi [22] ishlab chiqildi. Mazkur strategiya AQSH Yaqin Sharqdagi neft va gaz konlari ustidan monopol nazorat qilish huquqini va mintaqa resurslariga bog'lanib qolgan davlatlarga (Xitoy, Yevropa Ittifoqi v.b.) ta'sir o'tkaza olish imkoniyatini qo'lga kiritish orqali butun dunyoda yagona yetakchi davlat sifatidagi o'rnini mustahkamlashni maqsad qilgan[23].

Iroqdagi urush (2003-yil) Yaqin Sharqning avvalgi tuzumiga nisbatan birinchi zarbalardan bo'ldi. AQSH mazkur mintaqada hali bunday ko'lamdagi harbiy intervensiyada ishtirok etmagan. Ushbu urush natijasida Iroq amalda bir qancha qismlarga bo'linib ketib, Zbignev Bjezinskiy nazdida aytilganidek o'ziga xos "qora tuynuk" hosil bo'lishiga sabab bo'ldi [24; 146 b.].

Barak Obama 2008-yilgi AQSH prezidentlik saylovlarida g'alaba qozonganidan so'ng Iroqdagi qo'shinlarni olib chiqish masalasini ko'rib chiqdi. Buning uchun 2009-yilda Barak Obamaga "Tinchlik yo'lida xizmatlari uchun" Nobel mukofoti berildi. Bu esa mintaqadagi vaziyatni biroz yumatishga xizmat qildi. Ammo 2011-yildagi "Arab bahori" [25] davrida Yaqin Sharqning ko'pgina davlatlaridagi siyosiy vaziyatga

AQSh va uning ittifoqchilari faol aralashib kelishdi. Suriyadagi fuqarolar urushi va "Islom davlati" ning tuzulishi mintaqadagi vaziyatni yanada chigallashtirdi, 2015-yildan boshlab AQSH va NATO qo'shinlari mintaqa hududiga kirib, tinchlik va demokratiyani o'rnatishga harakat qilishdi.

2017-yildan AQSHning 45-prezidenti bo'lgan Donald Tramp tashqi siyosati davomida ko'pgina "og'riqli nuqtalar"ga qayta zarba berishdan boshladi. Chunki, 2015-yilda erishilgan Eron yadro dasturi bo'yicha kelishuv [26] ni qaytadan ko'rib chiqish va bir qator yuqori mansabdagi kishilarga nisbatan sanksiyalarni og'irlashtirish masalalarini, Suriya va Iroqdagi vaziyatga harbiylar aralashuvini kuchaytirish, ko'pgina davlatlar uchun muammo sanalgan – kurdlar muammosi, 2019-yildan esa Isroilning poytaxti sifatida Quddus (Iyerusalim)ni tan olish [27], Jo'lon tepaliklariga nisbatan Isroilning ustunligi masala [28] larini olib chiqa boshladi. Bu esa mintaqaning juda ko'p davlatlari e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Xitoy mazkur geosiyosiy jarayonlarda o'z energetik xavfsizligini ko'zlagan holda, Eronga nisbatan G'arbning bosimiga qarshi turmoqda. Xitoyning Arab davlatlari, Eron va Turkiya bilan iqtisodiy va energetik aloqalari samarali rivojlanib bormoqda. Agarda Xitoy 2007-yilda o'zining energiyaga bo'lgan ehtiyojlarini Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari hisobidan 38,7% ga qondirgan bo'lsa, 2010-yilga kelib bu ko'rsatkich 47%ga yetgan. 2011-yilning oxiriga kelib Xitoyning 18 ta arab davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 200 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan [29; C. 43.].

Mutaxassislar fikricha, "Xitoyning Eronni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi Yaqin Sharq mintaqasida AQSH va Xitoy o'rtasidagi strategik raqobatning muhim elementi hisoblanadi [29; C. 44.].

Ilgari Xitoyning mazkur mintaqa davlatlari bilan munosabatlari faqat iqtisodiy va harbiy sohaga yo'naltirilgan bo'lsa, hozirda ijtimoiy-madaniy yo'nalishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Xitoy hozirda o'zining tili va madaniyatini ommalashtirish bo'yicha mintaqada birmuncha natijalarga erishgan [30; P. 21].

Xitoy BMTda Suriyaning qonuniy hukumatini qo'llab-quvvatlamoqda, Eron bilan energetika yo'nalishda hamkorlikni rivojlantirib, turli savdo bitimlar imzoladi. Shuningdek, Xitoy mazkur mintaqadagi yirik davlatlar bilan barcha sohalarda aloqalarni rivojlantirishga harakat qilib kelmoqda.

Hozirgi paytda AQSH Xitoyni iqtisodiy jihatdan blokada qilishga urinib kelmoqda. Bu jarayonda Yaqin Sharq mintaqasi alohida ahamiyat kasb etadi. Vashingtonning ham Xitoy bilan hamkorlik qilayotgan mintaqada davlatlarning har biriga siyosiy bosim o'tkazib kelishi ham tasodifiy emas. Chunki Yaqin Sharqdagi energiya resurslariga asosiy xaridor AQSH emas, aynan Xitoy hisoblanadi[31]. Ammo yana bir jihatni hisobga olmaslikning iloji yo'q. Ya'ni Yaqin Sharqdagi ko'pchilik davlatlarning energiya ishlab chiqaruvchi kompaniyalari mahalliy davlat vakillarining emas, balki AQSH yoki unga ittifoqchi bo'lgan g'arb davlatlari kompaniyalari boshqaruvida hisoblanadi [32].

Buning isboti sifatida 2011-yilning aprelida Eronda AQSH moliya vazirining sobiq o'rinbosari Pol Kreyg Robertsning OAVga bergan intervyusini misol qilishi mumkin. Jumladan u shunday izohlaydi: "Bizning Liviyada Qoddafiy hokimiyatini qulatish bo'yicha rejalarimiz, avvalambor, Rossiya va Xitoyni O'rta yer dengizi hududlaridan umuman siqib chiqarishga qaratilgan edi. Chunki Xitoy Angola va Nigeriya davlatlari bilan bir qatorda Liviyaga energetik investitsiyalar kiritib shu orqali o'zining energetika resurslariga bo'lgan ehtiyojini qoplashni rejalashtirmoqda… AQSHning Suriyadagi manfaatlari shundan iboratki, aynan Suriya O'rta yer dengizini nazorat qilish imkonnini beruvchi dengiz harbiy bazalariga ega…" [33].

Rossiya manfaatlariga keladigan bo'lsak, 1990-yillarda sobiq Ittifoq parchalanganidan keyin Yaqin Sharq mintaqasida o'z o'rnini yo'qotdi. Ammo bugungi kunda mintaqada o'z ta'sir doirasini tiklash va kuchaytirish maqsadida faol tashqi siyosat yuritmoqda. Buni Eronga nisbatan sanksiyalarni qo'llab-quvvatlamaslikda va Suriyaga harbiy yurishlarning oldini olish borasidagi sa'y-harakatlarida ko'rish mumkin. Umuman olganda, Xitoy va Rossiya (ko'pgina Yevropa davlatlari) Yaqin Sharqdagi demokratlashmagan davlatlarda siyosiy islohotlarni olib borishda AQSH ta'sirini kuchaytirishga qarshi harakat qilmoqda.

Sobiq Sovet Ittifoqi uzoq davr mobaynida Misr, Suriya, Jazoir va Iroq armiyasini qurol-yarog' bilan ta'minlab keldi. Agar sobiq Ittifoq 1980-yilgacha Iroqni qo'llab-quvvatlab kelgan bo'lsa (1972-yilda imzolangan Sovet-Iroq o'rtasidagi "Do'stlik va hamkorlik" shartnomasi asosida), Iroqning Eronga bostirib kirishi sobiq Ittifoqni Eron bilan yaqinlashtirdi. Bunga birinchidan, Iroqning 1972-yilgi shartnoma majburi-

yatlarini buzgan holda g‘arb davlatlaridan qurol-yarog‘ sotib olishni boshlaganligi, ikkinchidan urush tufayli sobiq Ittifoq hududiga yaqin joyda konflikt hududining paydo bo‘lishi va bu hududga g‘arb davlatlarining harbiy kontingentlarining kirib kelishi, uchinchidan Eronda inqilobiy to‘ntarishdan keyin g‘arbga nisbatan agressiv qarashga ega Oyatullo Xumayniy hokimiyatga kelishi sabab bo‘ldi[34;P.155].

Shunday bo‘lsada, 1990-yilgacha sobiq Ittifoqning mintaqadagi asosiy hamkorlari Misr, Suriya, Iroq, Eron va Jazoir bo‘lib qoldi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so‘ng Iroqning Quvaytga bostirib kirishi AQSH va G‘arb davlatlari uchun mintaqada kuchli ta’sirga ega bo‘lish imkoniyatini taqdim etdi.

Ammo so‘nggi yillar oralig‘ida Rossiya Yaqin Sharq mintaqasida mustahkam pozitsiyaga ega bo‘ldi. Suriyada Rossiya yordamida amaldagi B.Asad hokimiyatining saqlanib qolinganligi, Turkiya va Eron kabi strategik hamkorlar bilan harbiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda erishilgan kelishuvlar sabab bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, jahon siyosatida islom omiliga to‘g‘ri baho bera olish eng dolzarb masalaga aylandi. Mintaqada geosiyosiy vaziyat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati – bu yerda so‘nggi o‘n yillikda dunyodagi eng ko‘p davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, diniy konfessiya va millatlararo ziddiyat, qarama-qarshiliklarga asoslangan mojaro va qurolli to‘qnashuvlar sodir bo‘lmoqda. Uning asosiy sababi sifatida mintaqada ko’p yillar davomida muammoli masalalarning yig‘ilib qolganligi va tashqi kuchlarning o‘z manfaatlarini ko‘zlagan holda aralashuvini keltirish mumkin. Bunday sharoitda mintaqa mamlakatlarining o‘z milliy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashlari ularning bugungi kundagi ustuvor vazifasiga aylanib qolgan. Kelgusida ham bunday jarayonlarning davom etishi mintaqa aholisining hayoti yaxshilanishiga olib kelmaydi. Hozirgi globallashuv sharoitida bir mintaqada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar boshqa mintaqalarga ham ta’sir ko‘satmay qolmasligini unutmaslik lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dunyo aholisi soni bo‘yicha ma’lumotlar bazasi (04.04.2019) http://www.worldometers.info/world-population/
2. AQSHning “Diniy izlarnishlar markazi” (Pew research center) ma’lumotlariga ko‘ra islom diniga e’tiqod qiluvchi dunyo aholisi soni o‘sish sur’atlari (04.04.2019) https://www.pewforum.org/2015/04/02/muslims/
3. History of Islamic organization of cooperation. (01.02.2019) https://www.oic-oci.org/home/?lan=en
4. Karimov F.E. Yaqin Sharqdagi etnosiyosiy muammolar va mintaqaviy xavfsizlik masalalari. -T.: “Sharq nashriyoti”. 2016.
5. Jumaev R.Z. Konfliktologiya (monografiya).- T.: TDSHI. 2018.
6. Yovqochev Sh.A. Jahon siyosatida islom omili. -T.: ToshDSHI, 2016.
7. Agnew J; Geopolitics: Re-Visioning World Politics, Routledge, London, 2003.
8. K. Dodds, “Geopolitics in the Foreign Office: British Representations of Argentina 1945-1961,” Transactions of the Institute of British Geographers. Vol. 19, No. 3, 1994.
9. Gafurov S.M. Xavfsizlik strategiyasi: Markaziy Osiyo respublikalari va Fors ko’rfazi arab davlatlari amaliyoti. –T: O‘zbekiston., 2007.
10. Hourani A.H. Minorities in the Arab World, -London; OxfordUniversity Press, 1947.
11. Campbell-Bannerman Report, 1907 [Электронный ресурс] // Political Islam. - Режим доступа: https://politicalislam.wordpress.com/2009/04/14/campbell-bannerman-report-1907/
12. Balfour Declaration, United Kingdom. https://www.britannica.com/event/Balfour-Declaration
13. Sykes-Picot Agreement,1916. (Asia Minor Agreement) https://www.britannica.com/event/Sykes-Picot-Agreement
14. Karimov F.E. Yaqin Sharqdagi etnosiyosiy muammolar va mintaqaviy xavfsizlik masalalari. -T.: “Sharq nashriyoti”. 2016.
15. 1956-yil Isroil-Buyuk Britaniya-Fransiya birlashgan qo‘shinlari Misrga yurish qiladi va Suvaysh kanalini bosib oladi. Sobiq Ittifoqining yordami bilan Misr ushbu urushda g‘alaba qozonadi.
16. The Eisenhower Doctrine, 1957 https://history.state.gov/milestones/1953-1960/eisenhower-doctrine
17. Roham Alvandi. Nixon, Kissinger, and the Shah: The United States and Iran in the Cold War. Published to Oxford Scholarship On-

line: June 2014 P. 5. http://www.oxfordscholarship.com/view/10.1093/acprof:oso/9780199375691.001.0001/acprof-9780199375691-chapter-3
18. Richard J. Samuels Carter Doctrine United States foreign policy initiative. https://www.britannica.com/topic/Carter-Doctrine
19. Ma'lumot uchun: Norasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Yaqin Sharq mintaqasida AQSHning 23 ta harbiy bazalari mavjud bo'lib, ular asosan quruqlik, havo va dengizda harbiy harakatlani olib borishga mo'ljallangan. https://www.americansecurityproject.org/national-security-strategy/u-s-bases-in-the-middle-east/
20. Karimov F.E. Yaqin Sharqdagi etnosiyosiy muammolar va mintaqaviy xavfsizlik masalalari. - T.: "Sharq nashriyoti". 2016.
21. Xaddad R.M. Sovremennaya Blijnevostochnaya strategiya SSHA: geopoliticheskie i kontseptual`nie osnovi // M.: Armiya i obshestvo. 2008.
22. Dona J. Stewart. The Greater Middle East and Reform in the Bush Administration's Ideological Imagination. -London: Geographical Review. Vol. 95, No. 3, New Geographies of the Middle East (Jul., 2005), -pp. 400-424 https://www.jstor.org/stable/30034245?seq=1#page_scan_tab_contents
23. Melkumyan YE.S. Reformi v regione rassherennogo Blijnego Vostoka. http://www.iimes.ru/rus/stat/2006/12-01-06b.htm
24. Karimov F.E. Yaqin Sharqdagi etnosiyosiy muammolar va mintaqaviy xavfsizlik masalalari. -T.: "Sharq nashriyoti". 2016.
25. Crystal Douglas, Andrea Fischer, Kim Fletcher. The Arab Uprisings: Causes, Consequences and Perspectives. ICAT Working Paper Series. March 2014. www.kennesaw.edu/icat
26. Dostignuto soglashenie po yadernoy programme Irana. 14 iyulya 2015. https://www.bbc.com/russian/international/2015/07/150714_iran_deal_reached
27. I have determined that it is time to officially recognize Jerusalem as the capital of Israel. 6.12.2017 https://twitter.com/realdonaldtrump/status/938517073508163584
28. Golan Heights: Trump signs order recognising occupied area as Israeli. 25 March 2019. https://www.bbc.com/news/world-middle-east-47697717
29. Nikolay Bobkin. Iran i Kitay: v osnove drujestvennix otnosheniy pragmatizm. -M.: Novoe vostochnoe Obozrenie, 2014.
30. Howeidy F. Citizens not protected (in arabic), Cairo:Dar El Sherouk, 1990.
31. China and the Middle East: More Than Oil. February 28, 2014 . http://www.europeanfinancialreview.com/china-middle-east-oil/
32. Top 30 Oilfield Services Companies 2018. 15 April 2019 https://www.oilandgasmiddleeast.com/lists/top-30-oilfield-services-companies-2018
33. Pol Kreyg Roberts: "Protesti v Livii i Sirii bili srejisirovani SSHA". Apr. 30th, 2011 https://analyzethis-lj.livejournal.com/19823.html
34. The Middle East and North Africa 1986, - Londres: Europa Publications, 1985.